

Xurshid TURSUNOV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
 E-mail: xurshid12@mail.ru
 Tel.:+998 91 4671212

IPU v.b.dotsent, t.f.f.d.(PhD), B.Mamatqulov taqrizi asosida

VOHA SANOAT TARIXI BUNYODKORI, QASHQADARYO TARIXCHILARINING ZABARDAST VAKILI PROFESSOR OBOD JO'RAQULOVNING ILMIIY MEROSI

Annotatsiya

Yurtimizda o'zining ilmiy tadqiqotlari bilan iz qoldirgan ko'plab tarixchi olimlarni sanab o'tishimiz mumkin. Mazkur maqolada voha sanoat tarixi asoschilaridan, tarix fani bo'yicha respublikamizda ko'zga ko'ringan olim, ko'plab yosh tadqiqotchilarga ustozlik qilib, hayotda o'zidan o'chmas iz qoldirgan muarrix, tarix fanlari doktori, professor Obod Jo'raqulovning hayoti va ibratli faoliyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sanoat, Surxondaryo, Qashqadaryo, chandir turkmanlari, tarix fani, mang'itlar, energiya, tadqiqot, monografiya, ilmiy maqola, arxiv.

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ПРОФЕССОРА ОБОД ДЖУРАКУЛОВА, СОЗДАТЕЛЯ ОАЗИСА ПРОМЫШЛЕННОЙ ИСТОРИИ, ВЫДАЮЩЕГОСЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЯ ИСТОРИКОВ КАШКАДАРЬИ

Аннотация

Мы можем перечислить многих ученых-историков, которые оставили свой след в нашей стране своими научными исследованиями. В этой статье рассказывается о жизни и образцовой деятельности профессора Обода Джуракулова, одного из основоположников истории оазисной промышленности, видного ученого в области истории нашей республики, историка, оставившего неизгладимый след в жизни, наставничество многих молодых исследователя, доктора исторических наук, освещается на научной основе.

Ключевые слова: Промышленность, Surxandarynская, Кашкадарьнская, Чандырская туркмены, история, энергетика, исследования, монография, научная статья, архив.

SCIENTIFIC HERITAGE OF PROFESSOR OBOD ZHURAKULOV, FOUNDER OF INDUSTRIAL HISTORY OF VOHA, GREATEST REPRESENTATIVE OF HISTORIANS OF KASHKADARYA

Annotation

We can list many historical scientists in our country who have left their mark with their scientific research. In this article, the life and exemplary work of Professor Obod Djorakulov, one of the founders of the history of oasis industry, a prominent scientist in the field of history in our republic, a historian who left an indelible mark on life by mentoring many young researchers, doctor of historical sciences, will be covered on a scientific basis.

Key words: Industry, Surkhandarya, Kashkadarya, Chandir Turkmen, history, energy, research, monograph, scientific article, archive.

Kirish. Insoniyat uzoq asrlar davomida erishgan sivilizatsiya, moddiy va ma'naviy madaniyatning bugungi darajasi jahon xalqlari qobiliyati, zehni, tadbirkorligi, matonati, tinimsiz mehnatining mahsulidir. Tarix odamzotning hayot uchun kurashini, bu jarayonda uning takomillashuvini, yuksalishini, kamolotga intilishini aks ettiruvchi xotira daftaridir. Demak, jahon tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Vatanimiz o'tmishi ajdodlarimiz turmush tarzi, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi fandir.

Tarix ajdodlarning keyingi avlodlarga qoldirgan noyob merosi, xalqimizning intellektual mulkidir. Abdurauf Fitrat "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzuli sabablarini o'rganaturg'on bilimdir", degan edi. O'tmishning murabbiyligini inobatga olib Abdulla Qodiriy moziyga qarab ish qilmoqqa da'vat etadi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa tarix kelajak tarozusidir, deb uqtiradi. Tarixda sodir bo'lgan har bir voqea, hodisa o'tmishga mansub. Shul sabab ularni keyingi avlod o'zgartirmaydi[7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda yangi demokratik jamiyat qurishga yo'l tutgan O'zbekiston jamiyati uchun o'zligini aniqlashda tarixiy xotirani uyg'otish asosiy ma'naviy vazifalardan biri hisoblanadi. "Ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga juda katta xissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaroning qalbida o'tmishini o'rganish orqali milliy g'ururining uyg'onishi mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir paytda katta ma'naviy qudrat va ulkan iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi" [5]. O'zligini anglagan, taraqqiyotning optimal varyantini tanlagan davlat, jamiyat uyg'un rivojlanadi. Tarix kelajakka yo'l ko'rsatuvchi xaritadir. Shuning uchun ham turli mamlakatlar o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olishda o'zining o'tmish tarixiga tayanib ish tutadi. O'z tarixini chuqur bilgan xalq irodali bo'ladi va uni hech qanday kuch yenga olmaydi.

Barchamizga ma'lumki, Qashqadaryo viloyati azaldan dunyo tan olgan olimu fuzalolar yurti hisoblanadi. Xususan, vohadan turli asrlarda yetishib chiqqan yuzlab Nasafiy va Keshiylarning dunyo tamadduniga qo'shgan munosib hissasi fikrimiz dalilidir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida ilmiy jarayonlar yanada faollashib, Qashqadaryo viloyatidan respublikaga taniqli fan va madaniyat arboblari etishib chiqdi. Albatta, bu jarayonga viloyatning eng ilg'or va yetakchi ilm maskanlaridan hisoblangan, qariyb 80 yillik tarixga ega Qarshi davlat universiteti asosiy fan, san'at va madaniyat namoyondalari yetishtirib beruvchi dargohlardan biri bo'lib xizmat qildi. Darhaqiqat, mazkur "Janub javohiri" deb ta'rif beriladigan oliy dargohning nufuzi yuqori hisoblanadi va unga asosiy tamal toshini qo'ygan ziyoli olimlar hali sovetlar hukmronligi davrida kamol topgandi.

Qarshi davlat universiteti o'zining bir necha ilmiy maktablari bilan mashhur. Ana shunday peshqadam ilmiy maktablardan biri tarix maktabidir. Ushbu maktabning asoschilaridan biri va ilg'or vakili, butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan fidoyi inson, tarix fanlari doktori, professor Obod Jo'raqulovdir. O.Jo'raqulov butun hayotini ilm-fanni rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalashga bag'ishladi. Olim o'zining 55 yillik ilmiy faoliyati davomida tarix fani sohasida muhim tadqiqotlarni

amalga oshirib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid muhim ilmiy xulosalar yaratdi. Uning O'zbekistonning dunyo madaniyati tamaddunidagi o'rni mavzusiga oid maqolalari, tadqiqotlaridan hozirda ko'plab xorijiy ilmiy markazlar hamda oliygohlarda foydalaniladi.

Asl millati turkman bo'lgan olim 1936-yilda Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumani, Chandir qishlog'ida tug'ilgan. Onasidan erta ajralgach, bolaligi o'gay ona qo'lida, qiyinchilik bilan o'tdi. O'rta ta'limni Chandirda, turkman maktabida oldi. Balog'atga etib mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida u faqat turkman tilini bilardi, xolos. Hayotda oldiga qo'ygan ulkan maqsadlariga erishish, sovetlar jamiyatida o'zining o'rniga ega bo'lish uchun o'zbek va rus tillarini bir vaqtda o'rganishni boshladi. Qilgan mehnatlarining samarasi o'laroq bo'lajak olim 1956-yilda Samarqand davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirdi. Talabalik vaqtida kuchli xotirasi, bilimga chanqoqligi bilan boshqa kursdoshlaridan ajralib turgan O.Jo'raqulov universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdi [1].

Tahlil va natijalar. Pedagogik faoliyatini maktabda boshlagan yosh olim ko'p o'tmay ilmiy faoliyat bilan chuqur shug'ullanish maqsadida o'zi tahsil olgan Samarqand davlat universiteti aspirantura yo'nalishiga hujjat topshirdi va o'qishga qabul qilindi. Bo'lajak olim ustoz bilan kelishgan holda "O'zbekistonda gaz sanoatining yaratilishi va rivojlanish tarixi" kabi murakkab mavzu tanladi. Bu yo'lda yosh olim neft va gaz sanoatining yetakchi mutaxassislari bilan hamkorlik qildi.

Sobiq Sovet davlatining neft va gaz konlari topilgan turli nuqtalarida, xususan Sibir va Turkmaniston cho'llarida, qishning qahratoniyu, yozning jaziramalariga qaramasdan ilmiy izlanishlar olib bordi. Sobiq ittifoq hududida olimning qadami etmagan birorta ham neft va gaz konlari topilgan joy qolmadi. Mashaqqatli mehnat va tinimsiz izlanishlar natijasi o'laroq, 1968-yilda Obod Jo'raqulov nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Olim bu yutuqlar bilan cheklanib qolmadi va ilmiy ishlarini yanada mukammallashtirib davom ettirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Erishilgan yutuqlar barobarida O.Jo'raqulov 1966-yil 1-noyabrda Qarshi davlat pedagogika instituti, tarix kafedrasiga ishga qabul qilindi [2].

Butun Sovet ittifoqi respublikalariga neft va gaz sanoatini o'rgangani orqali tanilgan olim ushbu muvaffaqiyatlar bilan cheklanib qolmay, 1977-yildan doktorlik dissertatsiyasini yozishga kirishdi. Uzoq yillik izlanishlardan so'ng 1984-yilda "O'rta Osiyoda neft va gaz sanoatini rivojlanishi" mavzusidagi dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildi va tarix fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Bunday yuksak ilmiy daraja olgan qashqadaryolik olimlar viloyatda bor-yo'g'i 2 nafar edi va O.Jo'raqulov uchinchi bo'lib fan doktori darajasiga sazovor bo'ldi. Bolaligida rus va hatto, o'zbek tilini bilmagan, jaydari qishloq bolasining katta yutuqlarga erishishi tahsinga sazovor edi. Albatta, bu kunlarga yetishish uchun olim uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi, inson o'zining mehnati va sabr-toqati bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish mumkinligini yana bir bor isbotladi. O'sha yilda Qarshi davlat pedagogika instituti rektori M.Boltaevning O.Jo'raqulov haqida "Qashqadaryo haqiqati" gazetasida e'lon qilingan "Cho'l farzandi – fan doktori" nomli katta maqolasining e'lon qilinishi ham olimning yutuqlariga berilgan yuksak baho desak mubolag'a bo'lmaydi. 1985-yilda Obod Jo'raqulovga professorlik ilmiy unvoni berildi [3].

Neft va gaz sohasi tarixiga oid tadqiqotlarni tamomlagan olim endi e'tiborini Qarshi davlat pedagogika institutidagi faoliyatiga, yosh shogirdlar tayyorlashga va ijtimoiy tarixiy asarlar yozishga qaratdi. O'zbekiston Milliy universitetining tarix fanlari nomzodlik va doktorlik ilmiy kengashi a'zosi sifatida ko'plab yosh olimlarga rahbarlik qildi. Olimning "Chandir turkmanlari", "O'zbek mang'it urug'i" kitoblari, birinchi o'zbek generali hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan "General Jo'rabeek qadriyati" risolalari chop etildi.

Obod Jo'raqulov mehnat faoliyatning asosiy qismi Qarshi davlat universiteti (eski QDPI)da o'tdi. Bu davrda olim turli lavozimlarda mehnat qildi. Xususan, olim bir necha yillar universitetda kafedra mudiri, dekan vazifalarida faoliyat ko'rsatib, universitetning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek talabalarga tarix ilmidan saboq berdi, yosh o'qituvchilar ilmiy ishlariga ustozlik va rahbarlik qilib, fakultet ilmiy salohiyatini yuksaltirishda jonbozlik ko'rsatdi. Hozirgi kunda ham olimning bir qator shogirdlari fan doktori, fan nomzodi darajalariga ega bo'lib, universitetda faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Afsuski, uzoq davom etgan hastalik 2010-yilda tarixchi olim Obod Jo'raqulovni hayotdan olib ketdi [4].

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgach, tarix fanining barcha sohalarida chuqur mulohaza bilan xolisona fikr yuritish imkoni tug'ildi. O'zbekiston tarixini haqqoniy tahlil etish uchun keng yo'l ochildi.

O'zbekistonda real dunyoqarash shakllanib, umuminsoniy qadriyatlar qaror topa boshladi. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston tarixi, umuman ma'naviy qadriyatlarni tiklash maqsadida ilm-fan, uning rivoji, ma'naviy hayotining muhim sohalarini rivojlantirish islohotlari amalga oshirilmadi.

Muhokama. Sovet davrida tarixning eng kam o'rganilgan sahifalaridan biri – O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatidir. Bu mavzu istiqlolning dastlabki yillaridayoq siyosatchilar, iqtisodchilar hamda tarixchilarning diqqat markazidagi mavzularidan biriga aylandi. Tarixni haqqoniy va xolisona tarzda tahlil etish O'zbekiston tarixshunosligining bosh tamoyiliga aylandi.

Sovet davrida sanoat sohasi tarixi bo'yicha bir nechta dissertatsiya ishlari ham bajarildi. Xususan, voha sanoat tarixi bunyodkori, Qashqadaryo tarixchilarining zabardast vakili professor Obod Jo'raqulovning 1967-yilda "O'zbekistonda gaz sanoatining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi" nomli dissertatsiyasi sanoat tarixi yuzasida respublikadagi ilk ilmiy tadqiqot edi. O'zbekistonda sanoat sohasi tarixini tadqiq qilish borasida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi [5].

Professor O.Jo'raqulov mustaqillik yillarida O'zbekistonda sovet davri sanoati tarixi mavzusi yuzasidan bir qancha risola va monografiyalari e'lon qildi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari sanoat tarixini mukammal o'rgandi.

O.Jo'raqulov "Qashqadaryo sanoat tarixi" nomli risolasida Qashqadaryo viloyatida o'tgan asrning 20-40-yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan ishlar yangi nazariy metodologiyaga asoslangan holda bayon etilib, asosiy e'tibor mayda kustar sanoati faoliyatini tahlil etishga qaratiladi. Chunki viloyatda 20-yillarda yagona sanoat korxonasi 79-sonli paxta tozalash zavodi bo'lib, mazkur korxonada faoliyati risolada atroflicha tahlil etiladi.

Muallif zavod faoliyatida ta'rif berib shunday deydi: "1926-yilda ishchi-dehqon inspeksiyasi zavodning bir yillik faoliyatini tekshirganda korxonada jamoasi orasida tartib-intizom bo'shligi, ishchi kadrlarning qo'nimsizligi, korxonada rahbarlari o'rtasida turli kelishmovchiliklar borligi aniqlandi. 1925-yilda korxonada direktori uch marta o'zgargan. Zavodga paxta yetkazib berish uchun Yakkabog', G'uzor, Chiroqchi tumanlarida paxta qabul punkti ochilgan bo'lib, ularda ham qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan". Shuningdek, risolada 1927-yil Qashqadaryo okrugidagi kustarchilik artellarining to'liq ro'yxati, a'zolarining soni, ishlab chiqarish turlari haqida ham ma'lumotlar berildi. Ushbu risolada mualliflar tomonidan Qashqadaryo okrugida amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining mohiyati bir qadar asoslangan [6].

Professor O.Jo'raqulovning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib etishda biz tomonimizdan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi:

birinchidan, 2024-yil professor tavallud topgan oyda «Voha sanoat tarixi bunyodkori, Qashqadaryo tarixchilarining zabardast vakili professor Obod Jo'raqulovning ilmiy merosi» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etish;

ikkinchidan, tarixchi olimning ilmiy merosini o'rganish uchun ijtimoiy tarmoqning imkoniyatlaridan foydalanib, telegram, feysbuk va boshqa messenjerlarda olimning ilmiy merosini targ'ib etish uchun rasmiy sahifalrini yaratish;

uchinchidan, professor Obod Jo'raqulovning uy muzeyini mahalliy hokimlikning maxsus qarori asosida qayta tashkil etib, o'quvchi yoshlarni, talabalarni tashriflarini tashkil etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yurtimiz olimlarining ilmiy merosini o'rganish, ularning ilmiy-ijodiy oshlarini kelajak avlodga qoldirish milliy qadriyatlarimizdan biridir. Bu esa o'z navbatida milliy-ma'naviy merosni yanada boyishiga xizmat qiladi. Professor O.Jo'raqulov novator pedagog betakror, notiq va yosh avlodga mehribon ustoz edi. Olim yosh avlodni zamon talabi asosida tarbiyalash, ularning vatanimizga yetuk kadrlar bo'lib yetishiga alohida e'tibor qaratgan. Professor Obod Obod Jo'raqulov bilan qurilgan suhbatlar, ustoz tomonidan berilgan nasihatlar va uning hayotiy tajribalari hali ko'p yillar davomida shogirdlar va yosh tarixchilar uchun o'ziga xos ibrat maktab bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jo'raqulov O. Ko'rganlarim-anglaganlarim. – Toshkent, 2010
2. Sodiqov T., Rasulov T. Begmatova N. Universitet tarixidan lavhalar. – Qarshi, 2013.
3. Sodiqov T. Yodnoma. III qism. – Qarshi, 2012
4. Jo'raqulov O. Qarshi davlat universiteti. – Toshkent: "Fan"
5. Jo'rayev N. Tarix falsafasi. – Toshkent. "Ma'naviyat", 1999
6. Mamatqulov B. O'zbekiston gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va uning rivojlanish tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida)// Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. - №12/1(3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online) <https://scienceproblems.uz>
7. Mamatqulov B. O'zbekistonda 1925-1954 –yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2023. – №12/5. – B. 61 – 65. <http://mamun.uz/uz/page/56>
8. Tursunov X. Tarix fanining jamiyat rivojidagi o'rni // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2023. – №8/3. – B. 22 – 24. <http://mamun.uz/uz/page/27>